

## Loyiha oldi va loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash uchun

### 10-2022/IPS-sonli SHARTNOMA

Samarqand shahri.

«16» 11 2022 yil.

Samarqand viloyati hokimligi Injining kompaniyasi (Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) direktori A.Ilmuratov bir tomondan, «**IDEAL-PROJEC-SERVIS**» MCHJ (keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) direktori I.Begnazarov ikkinchi tomondan, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan quyidagi shartnomani tuzdilar:

#### 1. Shartnoma mavzusi va tuzilishi.

1.1. Buyurtmachi ko'rsatma beradi va «Bajaruvchi» Samarqand viloyati, **«Ishtixon tumani 27-maktabda zamon talablariga mos sun'iy qoplamali maydon tashkil qilish»** ob'yekti uchun loyiha oldi va loyiha-smeta hujjatlarini (ART, ekologiya, topo-xarita, geologiya, binoni texnik xolatni o'rganish va ishchi loyiha) ni amalga oshirish ishlarini o'z zimmasiga oladi: «Korxonalar va bino va inshootlarning kapital qurilishi uchun loyiha hujjatlarini tuzish, ishlab chiqish, tasdiqlash tartibi» (SHNQ)1.03.01-08 yil va boshqa meyoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

1.2. O'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 37-bo'limi, O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik subektlari faoliyatining huquqiy asoslari to'g'risida»gi qonuni va 1998 yil 29 iyundagi 261-sonli qarorini qo'llaydilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 apreldagi PQ-847-son «Loyiha-tadqiqot tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori hamda 2019 yil 27 fevraldagi F-5445-son «2019 yilda vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlari to'g'risida»gi farmoyishiga asosan «Ob'yektlarni shartnomaviy joriy narxlarda qurish bo'yicha loyiha-qidiruv ishlari harajatlari tartibi to'g'risidagi» nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019 yil 9 sentyabrda 3180 raqami bilan ro'yxatga olingan va ushbu shartnoma, bajaruvchi ushbu ishlarni, amaldagi qurilish kodekslariga va qurilish ishlariga va qurilish ishlari uchun loyiha hujjatlarini tuzish, kelishish va tasdiqlash tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq bajaradi va tugatadi.

1.3. Ushbu shartnomaning ajralmas qismi quyidagilardan iborat:

- Loyiha-qidiruv ishlari smetasi;
- Loyiha ishlarining taqvim jadvali;

1.4. Belgilangan tartibda tasdiqlangan loyiha topshirig'i ishchi loyihani ishlab chiqish uchun asosdir.

1.5. Alohida bosqichlarni loyihalash ishlarining nomi va muddati ishchi loyihani berish uchun taqvim jadvali bilan belgilanadi.

1.6. Shartnoma beruvchi tomonlardan biri tomonidan ishlab chiqilgan va shartnoma loyihasi imzolagan taraf boshqa tomonga yuboriladi. Shartnoma loyihagini kontengentga yuborish shartnoma tuzish taklifidir.

1.7. Agar kelishuv loyihasi bo'yicha kelishmovchiliklar mavjud bo'lsa, tomonlar 10 kun ichida ularni hal qilish choralari ko'radilar.

1.8. Ushbu shartnomaga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan qo'shimcha bitimda batafsil bayon etilgan.

1.9. Ushbu shartnomaning shartlari ikkala tomon uchun ham majburiydir va ularning roziligi bilan o'zgartilishi mumkin.

#### 2. Tomonlarning majburiyatlari.

2.1. Bajaruvchining majburiyatlari:

2.1.1. Tasdiqlangan loyiha topshirig'iga, buyurtmachining qurilish normalari va qoidalari va ushbu shartnomaning shartlarida belgilangan tartibda taqdim etilgan dastlabki qarorlarni berish uchun taqvim jadvaliga muvofiq ishlarni bajarish.

2.1.2. Shartnoma imzolanganidan va qurilish normalari va qoidalari, shuningdek ushbu shartnoma shartlari bilan belgilangan topshiriq uchun dastlabki materiallarni olgandan keyin ishchi loyihani ishlab chiqadi.

2.1.3. Buyurtma berilgandan keyin 5 kun ichida buyurtmachiga texnik shartlarni olish uchun ma'lumotlarni taqdim etish kerak.

2.1.4. Buyurtmachi yozma ravishda taqdim etilgan iltimosiga binoan loyiha hujjatlarini ishlab chiqishni to'xtatib turadi va davom ettiradi.

2.1.5. Loyihaviy-smeta hujjatlarni barcha manfaatdor tashkilotlar bilan (Arxitektura Bosh boshqarmasi, DSENM, gaz, elektr va boshqalar), shu qatorda davlat nazorati organlari bilan qo'shimcha talablar taqdim etilgandan so'ng muvofiqlashtiriladi.

2.1.6. Ishchi loyihani ishlab chiqishda buyurtmachining davlat nazorati, vakolatli orgnalarining muloxazalarini inobatga olish va ishchi loyihani ishlab chiqishda o'z vaqtida kerakli o'zgartirishlarni kiritish.

- 2.1.7. Bajaruvchining aybi tufayli ishchi loyihasini ishlab chiqishda xatolar va noto'g'ri hisob-kitoblar aniqlangan taqdirda loyihalash hujjatlaridagi kamchiliklarni o'zmablag'lari xisobidan bajardi.
- 2.1.8. Belgilangan vaqtda ushbu shartnomaning kalendar jadvaliga binoan buyurtmachiga ekspertiza xulosasi uchun loyiha-smeta hujjatlarini taqdim etish.
- 2.1.9. Ishlab chiqilayotgan loyiha bo'yicha sharxlar bilan mahalliy ekspert xulosalarini berishda, bajaruvchi tegishli tuzatishlar va tuzatishlar kiritadi (sharxlarni bekor qiladi) va yakuniy davlat ekspert xulosasi olish uchun loyiha-smeta xujjatlarini qayta taqdim etish.
- 2.1.10. Buyurtmachi davlat nazorati organlari tomonidan amalga oshirilgan barcha tuzatishlar va tuzatishlar va ishchi loyihaning materiallarga davlat ekspertizasi o'tkazilgandan so'ng bajaruvchi tugallangan loyiha-smeta hujjatlarini 3 nusxada (elektron versiyasini) buyurtmachiga belgilangan tartibda taqdim etadi.
- 2.1.11. Bajaruvchi "Buyurtmachidan" yozma so'rov olgan kundan boshlab 5 ish kuni ichida yozma javob yuborish.
- 2.1.12. QMQ 1.03.07.96 ga muvofiq (dala nazorati kalendar jadvaliga binoan) ob'yektda dala nazorati bilan ta'minlash.
- 2.1.13. Buyurtmachining birinchi so'roviga binoan tegishli mutaxassislarni ob'yektga yuborish va ish paytida loyiha topshirig'i ishlarida yuzaga kelgan muammolarni hal qilish.
- 2.1.14. Bajaruvchi shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni buyurtmachining roziligisiz uchinchi shaxslarga topshirishga xaqli emas.
- 2.2. Bajaruvchi quyidagi huquqlarga ega:
- 2.2.1. Buyurtmachining oldindan yozma roziligisiz ishlarning bir qismini (loyihalashtirish va ilmiy-tadqiqot ishlarining maxsus turlari loyihalarni amalga oshirishda turli xil maslahat yordami va boshqalar) bajarish uchun xo'jaliklararo subpudratlarni tuzish. Subpudrat shartnomalarni tuzish bajaruvchi ushbu shartnoma bo'yicha o'ziga yuklatilgan javobgarlikdan ozod qilmaydi.
- 2.2.2. Buyurtmachining aybi tufayli to'lovlar kechiktirilgan bo'lsa va loyihalash uchun manbali materiallar taqdim etilmagan bo'lsa mutaxassislarning mavjud ish yukini hisobga olgan holda loyihaviy qarorlarni bosqichma-bosqich berish jadvalini ko'rib chiqish, ishchi loyihani ishlab chiqishning yangi muddatini belgilash va buyurtmachi bilan kelishib olish.
- 2.2.3. Shartnoma majburiyatlarini muddatidan oldin bajarish.
- 2.3. Buyurtmachining majburiyatlari:
- 2.3.1. Loyihalashtirish boshlanishidan oldin u bajaruvchi tomonidan hisoblangan yuklarni o'z vaqtida yetkazib berish sharti bilan loyihani tuzish uchun zarur bo'lgan dastlabki ma'lumotlarni beradi.
- 2.3.2. Ishchi loyihani bajaruvchidan olingan kundan boshlab 10 ish kuni ichida ishni qabul qilish va qabul qilish dalolatnomasiga imzo chekish yoki yozma izohlar bilan qaytarib berishni ko'rib chiqish.
- 2.3.3. Bajaruvchiga shartnoma ko'zda tutilgan hajm va shartlarda ishlarni bajarishda yordam berish.
- 2.3.4. Bajaruvchining ishining sifatini kuzatib borish kamchiliklar to'g'risida o'z vaqtida xabar va tuzatishni talab qilish.
- 2.3.5. Ishchi loyihani bajaruvchidan olingan kundan boshlab 15kundan kechiktirmay davlat ekspertizasiga topshirish va ekspert xulosasini olish. Buyurtmachining aybi bilan davlat ekspertizasi uchun taqdim etilmagan ishchi loyixasi bajaruvchiga tugatish sertifikatini imzolanganidan keyin 3 oy o'tkach yakuniy to'lovni talab qilish xuquqini beradi.
- 2.3.6. Maxalliy ekspert xulosalarini ishchi loyihaning sharxlari bilan berganda u davlat ekspertizasi sharxlarini tuzatish uchun ishchi loyihani bajaruvchiga yuboradi.
- 2.3.7. Bajaruvchining tuzatilgan va tuzatilgan ishchi loyihani olgandan so'ng uni yakuniy ekspert xulosasi uchun davlat ekspertizasiga topshirish.
- 2.3.8. Buyurtmachi Bajaruvchining yozma so'rov olgan kundan boshlab 5 ish kuni ichida yozma javob yuborish.
- 2.3.9. Olingan ishchi loyihadan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalanish.
- 2.4. Bajaruvchi tuzilgan shartnomaga asosan, loyihaning tuzatilgan va tuzatilgan ishchi loyihani olgandan so'ng uni yakuniy ekspert xulosasi uchun davlat ekspertizasiga topshirish.

### 3 Shartnomaning qiymati va ishlarni moliyalashtirish shartlari.

- 3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Loyihachi" tomonidan bajariladigan ishlar, Etender.uzex.uz portalidagi elektron e'londagi tanlov natijasida aniqlangan va xarid komissiyasining (180408-sonli tanlov loti bo'yicha xarid komissiyasining bayonnomasi) bilan tasdiqlangan loyiha oldi va loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash ishlarining qiymati, mualliflik nazorati bilan birga smeta bo'yicha 5 950 000 ( Besh million to'qqiz yuz ellik ming) so'mni QQS siz tashkil etadi.
- 3.2. Buyurtmachi loyiha-qidiruv ishlari uchun shartnomaning umumiy qiymatining 30 foizi miqdorida avans 2022 yil manzilli dastur tasdiqlanganidan so'ng, to'lash majburiyatini oladi, ushbu ob'yekt bo'yicha shartnoma G'aznachilik boshqarmasidan o'tkazilgandan va byudjetdan mablag' kelib tushgandan keyin, amalda bajarilgan loyihalash ishlari uchun qolgan summa bajarilgan ishlar dalolatnomalariga muvofiq to'lanadi. Byudjetdan mablag' ajratish, yakuniy to'lov davlat ekspertizasining ijobiy xulosasini olgandan keyin amalga oshiriladi.

3.3. Shartnoma bo'yicha ish qiymati quyidagi hollarda o'zgartirish mumkin:

- Loyiha-smeta hujjatlari yoki unga kiritilgan o'zgartirishlar belgilangan tartibda qayta tasdiqlanganda;
- buyurtmachining tashabbusi bilan ish to'xtatilganda;
- shartnoma tomonlarning kelishuviga binoan.

#### **4- Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi.**

4.1. Ishchi loyihaning ishlab chiqilgan bo'limlarini qabul qilish va baholash loyihalash topshirig'i talablariga va jadval shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

4.2. Ish to'liq hajmda tugagandan so'ng, "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga barcha schyot-fakturalar va bajarilgan ishlar dalolatnomalari ko'rsatilgan holda uch nusxada (shu jumladan: chop etilgan, elektron variantda) ishchi loyihaning to'plamini yuboradi.

4.3. Ishchi loyihani qabul qilish to'g'risidagi dalolatnoma olingan kundan boshlab 10 ish kuni ichida amaldagi narxlarda smeta bilan to'liq hajmda

- loyihani loyiha bo'limida qabul qiladi;
- taqdim etilgan ishlarni bajarish dalolatnomaga imzo qo'yadi;
- ushbu shartnoma shartlariga muvofiq to'laydi;
- Bajaruvchi bajarilgan ishning dalolatnomasini yoki sabablarini ko'rsatgan holda ishni qabul qilishdan bosh tortish to'g'risida yuboradi.

4.4. Bajarilishi zarur bo'lganligi sababli bajarilgan ishlarni qabul qilish asosli ravishda rad etilgan taqdirda, "Buyurtmachi" kelishilgan vaqt ichida ikki tomonlama dalolatnoma tuzadi, unda zarur yaxshilanishlarning asosli ro'yxati va ularni bajarish muddatlari ko'rsatilgan va tasdiqlash uchun "Bajaruvchi"ga yuboriladi.

4.5. Agar ishchi loyihani ishlab chiqish jarayonida sabliy natija paydo bo'lishining muqarrarligi va kelgusida loyihalash jarayonining maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 3 ish kuni ichida uning to'xtabib turishi to'g'risida xabardor qilishlari va 5 ish kuni ichida ishchi ishchi loyihagini ishlab chiqishni davom ettirishning maqsadga muvofiq yoki yo'nalishlarini ko'rib chiqishlari shart.

#### **5 Tomonlarning javobgarligi.**

5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik uchun, bajaruvchi va buyurtmachi, boshqa holatlar uchun yetkazilgan zararni qoplamaslik holatlaridan tashqari, barcha holatlarda, O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi 670-1-sonli qonunga muvofiq javobgar bo'ladilar. "Tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatining shartnomaviy huquqiy asoslari to'g'risida" va amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa me'yoriy hujjatlar.

5.2. Loyiha-smeta hujjatlarini o'z vaqtida tayyorlash uchun bajaruvchi buyurtmachiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5% miqdorida jarima to'laydi, ammo jarimaning umumiy miqdori bajarilmagan ish qiymatining 50 foizidan oshmaslik kerak.

5.3. Hisob-faktura va sertifikatlar bo'yicha loyihalash ishlarining 100% tayyorligi va yetkazib berilganligi vaqtida to'lanmagan taqdirda. "Buyurtmachi" kechiktirilgan har bir kun uchun bajarilgan ishlar qiymatining 0,4% miqdorida jarima to'laydi, ammo kechiktirilgan to'lov miqdorining 50%dan oshmaydi.

5.4. Ushbu shartnomaning 3-bo'lim 3-bandida nazarda tutilgan shartnomaning umumiy miqdori, ob'yekt bo'yicha manzilli dastur tasdiqlangandan so'ng shatnomaga ko'shimcha kelishuv asosida o'zgartiriladi.

5.6. Mazkur shartnoma bo'yicha barcha to'lovlar byudjetdan tegishli maqsadlar uchun mablag'lar ajratilgandan so'ng moliyalashtiriladi va "Buyurtmachi" byudjetdan mablag'larning o'z vaqtida ajratilmasligi bilan bog'liq kechiqish uchun javobgar hisoblanmaydi.

5.7. Agar bajarilgan ishda (bosqichlarda) nuqsonlar aniqlansa, bajaruvchi ularni bepul bartarf etishga majburdir. Agar bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar loyihalash topshirig'i, texnik shartlar bo'yicha standartlarga javob bermasa, buyurtmachi ishlari, xizmatlarni qabul qilishdan va to'lashdan bosh tortishga va bajaruvchidan ish, xizmatlar narxining 25 foizgacha jarima undirishga haqqi yo'q ((sifati yo'qolgan jismoniy hajmlar), ishlar va hk), agar ish, xizmatlar allaqachon to'langan bo'lsa, belgilangan tartibda to'langan summalarning qaytarilishini talab qilish, ishlar, sifatsiz xizmatlar uchun jarima bajaruvchining roziligisiz undirib olinadi. Jarimani hisobdan chiqarish uchun to'lov so'rovi bank muassalariga ish va xizmatlarning sifatsizligi to'g'risida dalolatnoma tuzilgandan keyin 10 kundan kechiktirmay taqdim etiladi. Agar o'n kunlik muddatni buzgan holda jarimani hisobdan chiqarish uchun to'lov so'rovi yuborilgan bo'lsa, jarima belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5.8. Shartnoma manfaatdor tomon tomonidan shartnomaga muvofiq mulkiy va nomulkiy xususiyatga ega bo'lgan barcha masalalar hal etilgandan keyingina tugatilishi mumkin, bu haqda boshqa tomonni bir oylik yozma ravishda ogohlantiradi.

5.9. Ushbu kelishuv bilan bog'liq barcha kelishmovchiliklar, muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Agar kelishuvga erishilmasa, nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sudi tomonidan hal etiladi.

5.10. Agarda, bajaruvchi (loyihachi) tomonidan ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlaridagi ish turlari va xajmlari o'rtasidagi aniqlangan tafovut bo'yicha vujudga kelgan moliyaviy zararlar, bajaruvchi (loyihachi) tomonidan qoplab beriladi.

5.11. Bajaruvchi, tanlov bayonnomasiga asosan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun berilgan taklif kunidan kechiktirilgan har bir kun uchun 2% miqdorida buyurtmachiga jarima to'laydi, ammo jarimaning umumiy miqdori shartnoma qiymatining 50%dan oshmasligi kerak.

#### 6 Shartnoma muddati.

6.1. Ushbu shartnoma tomonlar imzolagan vaqtdan boshlab va g'aznachilik bo'limida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi. Shartnoma bitta moliyaviy yil uchun, ya'ni 2022 yil 31 dekbrgacha amal qiladi.

6.2. Shartnomaning amal qilish muddati uning bajarilishi uchun taraflarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

6.3. Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ulardan biri buyurtmachiga qoladi, biri bajaruvchiga beriladi va g'aznachilikdan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi.

#### 7 Qo'shimcha shartlar.

7.1. Tomonlar o'zaro bitim asosida bekor qilishga haqlidirlar.

7.2. Qayta ro'yxatdan o'tkazish, qayta tashkil etish yoki buyurtmachi yoki bajaruvchining maqomida boshqa o'zgarishlar yuzaga kelgan taqdirda, ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar ushbu qayta ro'yxatdan o'tkazish, qayta tashkil etish natijasida hosil bo'lgan yuridik shaxsga o'tkazadi.

#### 8 Fors-major holatlari.

8.1. Tomonlar ushbu shartnomada qabul qilingan majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin, agar bu fors-major holatlari (tabiiy hodisalar, yong'in, toshqin, zilzila, tabiiy ofat, falokat, portlashlar va boshqa fors major holatlari) bo'lsa, ushbu holatlar shartnoma bajarilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

#### 9 Tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari.

Tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari.

9.1. Yuridik manzil yoki xizmat ko'rsatuvchi bank o'zgargan taqdirda, tomonlar uch kun ichida bir-birlarini yozma ravishda xabardor qilishlari shart.

#### Bajaruvchi:

**Nomi:** «IDEAL-PROJEC-SERVIS» MCHJ

**Manzil:** Samarqand sh. Kuksaroy 1-uy

**h/r:** 2020 8000 5052 6348 5001

**Bank nomi:** ATB "O'zsanoatqurilishbank" Bosh ofisi

**MFO:** 00440


**STIR:** 307 628 446

**OKED:** 41100

**QQS to'lovchi kodi:** \_\_\_\_\_

**Tel:** 91-549-88/48

**Direktor** \_\_\_\_\_ **I.Begnazarov**



#### Buyurtmachi:

**Nomi:** Samarqand viloyat hokimligi Injining kompaniyasi.

**Manzili:** Samarqand sh. Ko'ksaroy maydoni 2 uy

**Bank nomi:** Markaziy bank Toshkent shaxar Bosh boshkarmasi XKKM

**Sh/R:** \_\_\_\_\_

**MFO:** 00014

**STIR:** 201212655

**IFUT:** 70220

**Tel:** 66-231-10-93; 66-235-47-97

**Direktor** \_\_\_\_\_ **A.Ilmuratov**

**Yurist** \_\_\_\_\_



**Nomi:** Moliya vazirligi Gaznachiligi, Samarqand viloyat g'aznachilik boshkarmasi

**X/R:** 23402000300100001010

**Bank nomi:** Markaziy bank XKKM Toshkent shaxar boshqarmasi

**Manzil:** Sam shaxar Kuksaroy maydoni №1

**Stir (INN):** 201 122 919

**MFO:** 00 014

**OKONX:** 97 160

**Tel:** 233-68-53, 231-11-52

Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun

**10-2022/IPS -sonli smeta**

Ob'ekt nomi: "Ishtixon tumani 27-maktabda zamon talablariga mos sun'iy qoplamali maydon tashkil qilish" uchun loyixa oldi va loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chiqish"

T/p	Ob'yekt nomi	Asos	Loyiha qiymati ming so'mda	Qiymat so'mda
1	2	3	4	5
1.	<b>"Ishtixon tumani 27-maktabda zamon talablariga mos sun'iy qoplamali maydon tashkil qilish"</b> <b>Dastlabki qurilish qiymati</b> <b>250 000 000 so'm</b>	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2019 yil 9-sentyabrdagi № 3180-sonli ro'yxatdan o'tazilgan buyrug'i O'zbekiston Respublikasi qurilish vazirligining 2019 yil 19 avgustdagi "Loyiha-tadqiqot ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizomi tasdiqlash haqida"gi 396-son buyrug'i 3-ilovasiga asosan $K=3,608$ pasaytiruvchi koefisient $K=0,659645233$  O'z.Res.V.M. №15-sonli qarori 33 bandan 33.1 bandiga asosan: II-toifa	$250\,000\,000 \times$ $3,608 \times$ $0,659645233 =$ $5\,950\,000$	5 950 000
<b>Loyiha qiymati jami :</b>				

Smeta bo'yicha jami: **5 950 000 ( Besh million to'qqiz yuz ellik ming) so'mni QQS siz tashkil etadi.**

**Bajaruvchi:**

«IDEAL-PROJEC-SERVIS» MCHJ



**Begnazarov I.**

Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun  
10-2022/IPS -sonli Ishlarni bajarish grafigi  
Ob'ekt nomi: \_\_\_\_\_

No	Shartnoma bo'yicha ishning nomi va uning bajarilish bosqichlari	Ishning bajarilish vaqti	Bajariladigan kun
1	2	3	4
1.	AR, GP	kun	10
2.	KJ	kun	3
3.	Smeta	kun	2
<b>JAMI</b>		kun	<b>15</b>

Eslatma: Shartnomani imzolanishi va to'lanishiga qarab ishning bajarilish vaqtini o'zgartirish xuquqini  
"Bajaruvchi" o'z zimmasiga qoldiradi.

**Bajaruvchi:**  
Direktor \_\_\_\_\_ **Begnazarov I.**

